

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATKARIMOV AZAMAT FARHOD O'G'LI

XALQ AMALIY SAN'ATI VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNI ESTETIK
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM SAN'ATI MISOLIDA)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Urganch – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Matkarimov Azamat Farhod o'g'li

Xalq amaliy san'ati vositalari asosida talabalarni estetik tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm san'ati misolida).....3

Маткаримов Азамат Фарход угли

Совершенствование педагогических механизмов эстетического воспитания студентов средствами народного прикладного искусства (на примере искусства Хорезма).....23

Matkarimov Azamat Farkhod ugli

Improvement of pedagogical mechanisms of aesthetic education of students based on folk practical art means (on the example of Khorezm art).....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of

publications.....49

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATKARIMOV AZAMAT FARHOD O'G'LI

XALQ AMALIY SAN'ATI VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNI ESTETIK
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM SAN'ATI MISOLIDA)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Urganch – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PHD/Ped4809 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.urspi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjaniyazov Sardor Umarovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar

Matjonov Nurjon Sultonmuratovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xodjamqulov Umid Negmatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya ishi himoyasi Urganch davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "22" 09 soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.: (99862) 226-37-87; faks: (99862) 226-37-87; e-mail: study_info@urspi.uz.

Dissertatsiya bilan Urganch davlat pedagogika institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.: (99862) 226-37-87; faks: (99862) 226-37-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "09" 12 kuni tarqatildi.
(2026- yil "09" 12 da 15 - raqamli reyestr bayonnomasi).



F.R. Madraximova
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., (DSc), professor

R.A.Latipov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d., dotsent

E.I. Ro'ziyev
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshindagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pedagogika fani va amaliyoti milliy-madaniy meros obyektlarini, xususan, xalq amaliy san'atining ko'p asrlik an'analari, evolyutsion rivojlanish bosqichlari hamda o'ziga xos estetik xususiyatlarini tadqiq etish global miqyosdagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy globallashtirish va madaniy integratsiyalashuv jarayonlarida o'sib kelayotgan yosh avlodning milliy o'zligini anglash darajasini yuksaltirish hamda ularni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq hunarmandchiligi merosining pedagogik transformatsiyasini ta'minlash tobora strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalq amaliy san'atining tarixiy-pedagogik imkoniyatlarini tizimli o'rganish zamonaviy ta'lim tizimida madaniy vorislikni saqlashning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan transformatsion geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini himoya qilish va ularni barqaror rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday murakkab sivilizatsiyaviy sharoitda o'zbek milliy madaniyatining fundamental asosi, ayni paytda tizimli va monografik darajada kam tadqiq etilgan tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm amaliy san'ati an'alarini pedagogik va san'atshunoslik nuqtayi nazaridan har tomonlama tahlil qilish dolzarb vazifadir. Ushbu noyob madaniy qatlamning badiiy-estetik tabiatini ilmiy asoslash jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini boyitishga, etnomadaniy qadriyatlarni asrab-avaylashga hamda ajdodlar merosini ta'limiy va amaliy vositalar orqali kelajak avlodga bezavol yetkazishga bevosita xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy islohotlar hamda xalqning an'anaviy badiiy qadriyatlarini qayta tiklashga qaratilgan davlat siyosati mazkur tadqiqot ishining konseptual asosini belgilab beradi. Xorazm xalq amaliy san'atining o'ziga xos maktabi, naqshlar tizimi va kompozitsion uslublari aynan klassik davrlarda yaxlit tizim sifatida shakllangan bo'lib, u o'zbek milliy badiiy merosining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. Biroq, ushbu monumental merosning pedagogik qonuniyatlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari va metodologik jihatlari ilmiy nuqtayi nazardan tizimli tadqiq etilmagan. Mazkur bo'shliqni to'ldirish nafaqat yo'qolib borayotgan an'anaviy texnologik uslublarni qayta tiklashga, balki zamonaviy ta'lim metodikasini mahalliy xususiyatlar bilan boyitishga ham xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ishi mamlakatimizda madaniyat, san'at va hunarmandchilik sohalarini rivojlantirishga oid belgilangan strategik vazifalarning ijrosini ta'minlashda muayyan darajada dolzarblik kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3219-sonli "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

Qarori¹, 2017-yil 17-noyabrdagi PF–5242-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni va 2017-yil 17-noyabrdagi PQ–3393-sonli “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi Qarori va faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Respublikamizda oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan olib borilayotgan harakatlarning asosiy yo’nalishi ham yoshlarning axloqiy-ma’naviy madaniyatini rivojlantirishga qaratilganligi ta’limni tarbiyadan ajratib bo’lmasligini yana bir bor isbotlaydi. 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonlari, 2021-yil 9-dekabrdagi PQ-36-son “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qarori, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim mazmunini yangilash va milliy madaniy merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish qarorlariga, tayanildi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” kabi ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Respublikamizda ushbu mavzu doirasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, mamlakatimiz olimlaridan Xorazm xalq amaliy san’ati masalasi ko’plab san’atshunos, tarixchi, etnograf va me’morchilik mutaxassislari tadqiqotlarida bayon etilgan, G.F.Pugachenkova, I.M.Radjabova, N.P.Rashidov D.A.Faxreddinova, S.S.Bulatov, A.A.Xakimov, D.A.Bobojonov, M.S.Abdullayev, A.M.Matkarimov, G.A.Xusainova, M.S.Rahimov, S.A.Aliyeva, O.A.Xo’janiyozova, N.A.Azizova, E.I.Ro’ziyev, J.K.Tajiyev, S.A.To’rayeva, Y.A.Raxmanova, U.A.Sheripov ishlarida o’z ifodasini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) olimlaridan A.V.Bakushinskiy, P.P.Blonskiy, D.B.Kabalevskiy, V.S.Kuzin, A.S.Makarenko, B.M.Nemenskiy, S.T.Shatskiy, B.G.Ananyev, N.N.Volkov, L.S.Vigotskiy, E.I.Ignatiev, V.S.Kuzin, M.G. Kagan, N.I.Kiyashchenko, B.G.Lixachev, N.G.Chernishevskiy, M.M.Bayrambekova, T.S.Komarova, V.S.Kuzina, N.N.Rostovtseva, N.V.Sokolnikova, E.V.Shoroxova, P.G.Bogatyreva, B.M.Vasilenko, M.A.Nekrasova, D.A.Rybakova, A.B.Saltikov, T.Y.Shpikalova,

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “O’zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori // “Xalq so’zi”. – 2017. – 17 avg.

S.M.Gadjimurodov, G.K.Gamzatova, D.B.Magomedov, P.N.Magomedova, Y.V.Pecherskiy, D.V.Skorobogatov, L.A.Rempel, I.D.Notkin, V.E.Bulatova, L.S.Mankovlar estetik tarbiyaning, shu jumladan xalq amaliy san'ati vositalari asosida talaba-yoshlarning estetik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik hamda pedagogik-psixologik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy mamlakat olimlaridan M.A.Pavaloy, Y.S.Kalter, E.S.Gyul, B.D.Veymarn, B.S.Denike, J.A.Xeynbey, R.S.Shekspir, H.A.Kollet, H.D.Vamberi, J.A.Abbat, X.D.Mazer, F.A.Barnabi, J.E.Mak-Gaxan, N.E.Bell, D.A.Teysy, J.A.Blek, V.A.Reynolds, D.A.Karr, J.K.Dayson, M.S.Erso'z, J.A.Graham, B.A.Makmullen, B.T.Meland, J.A.Merich, E.L.Tisdell, E.S.Taylor kabilarning ilmiy ishlarida hurmat mas'uliyat va shaxs aloqalarining ma'naviy-estetik madaniyatdagi o'rni, hozirgi kunda ma'naviyatning rivojlanish tendensiyalari, madaniyatning dinamik xarakteri, axloqiy-estetik ta'limning yo'nalishlari, ma'naviy ong, ma'naviy idrok, bilim va ma'naviyat o'rtasidagi munosabat va boshqa muammolar tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, hanuzgacha xalq amaliy san'atining pedagogik salohiyatidan ushbu yo'nalishda foydalanish masalalarini o'rganuvchi alohida tizimli kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi aniqlandi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Urganch davlat universitetini 2017–2030-yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalq amaliy san'ati vositalari asosida talabalarni estetik tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini o'rganish va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba-yoshlarni xalq amaliy san'ati vositalari asosida estetik tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy jarayonlari belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Urganch davlat pedagogika instituti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, hamda Buxoro davlat pedagogika institutidan 400 nafar talaba jalb qilingan.

Tadqiqot predmetini xalq amaliy san'ati vositalari asosida takomillashtirilgan didaktik resurslarni ta'lim jarayoniga kiritish orqali talabalarni estetik tarbiyalashning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning vazifalari:

xalq amaliy san'ati vositalaridan foydalangan holda talabalarning estetik tarbiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish va tahlil qilish;

Xorazm xalq amaliy san'ati (kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, kulolchilik) vositalaridan foydalangan holda talabalarning estetik tarbiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslarini hamda talabalarning estetik ongining rivojlanish dinamikasini aniqlash;

xalq amaliy san'ati vositalari asosida talabalarning estetik tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy modelini ishlab chiqish hamda unda estetik ong, estetik did, ijodiy faoliyat va milliy qadriyatlarga sodiqlikning integratsiyalashgan tizimini asoslash;

tadqiqot natijalari asosida Xorazm xalq amaliy san'ati vositalari orqali talabalarning estetik tarbiyasini takomillashtirish bo'yicha o'quv rejalari va fan dasturlarini boyitish, va amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar majmuasini yaratish.

Tadqiqot usullari:

xalq amaliy san'ati vositalari orqali talabalarga estetik tarbiya berish sohasidagi nazariy, uslubiy, psixologik, pedagogik va badiiy adabiyotlarni, shuningdek, tegishli ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

oliy ta'lim, shuningdek, an'anaviy tarzda rivojlangan badiiy hunarmandchilik markazlarida joylashgan maktablar, oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida Xorazm xalq amaliy san'atidan foydalanish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, aniqlash va umumlashtirish;

tadqiqotning sotsiologik metodlari, so'rovlar, o'qituvchilar, talabalar, maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari bilan suhbatlar o'tkazish, uslubiy tavsiyalar va ko'rgazmali o'qitish vositalarini sinovdan o'tkazish;

turli xalq an'anaviy hunarmandchiligining badiiy asarlarini yaratish jarayonini bevosita kuzatish, matematik statistika metodlari, pedagogik eksperiment, talabalarning badiiy ijodiy faoliyati natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalq amaliy san'ati vositalari asosida talabalarning estetik tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy modeli ishlab chiqilib, unda estetik ong, estetik did, ijodiy faoliyat va milliy qadriyatlarga sodiqlik kabi o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy komponentlar yaxlit integratsiyalashgan tizim sifatida asoslab berilgan;

Xorazm xalq amaliy san'ati namunalari (kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, kulolchilik) asosida talabalarning estetik tarbiyasini baholash uchun kognitiv (bilim), axloqiy-qiyamatli (munosabat), emotsional-estetik (his-tuyg'u) va faoliyatli-amaliy (ijodiy ishlar) komponentlarni qamrab olgan hamda talabalarning estetik rivojlanish dinamikasini aniqlash va pedagogik ta'sir samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini beradigan diagnostika mezonlari va indikatorlar tizimi aniqlashtirilgan;

Xorazm xalq amaliy san'ati materiallari integratsiyasiga tayangan holda talaba shaxsining estetik va ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi samarali o'quv-faoliyat resursi sifatida xizmat qiladigan amaliy mashg'ulotlar, ijodiy loyihalar, mahorat darslari, muzey va ustaxonalarga ekskursiyalar, interfaol metodlarni (klaster, loyiha, loyiha-portfel, "usta-shogird" an'analari) o'zida mujassamlashtirgan oliy ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etiladigan didaktik texnologiya va metodik kompleks ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalari asosida o'quv rejalari va fan dasturlarini boyitish, fakultativ kurslar, to'garaklar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirish

o'tkazishda qo'llash mumkin bo'lgan Xorazm xalq amaliy san'ati vositalari orqali talabalarning estetik tarbiyasini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar majmuasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm xalq amaliy san'ati talabalarni milliy badiiy madaniyat bilan tanishtirishning muhim yo'nalishi bo'lgan xalq amaliy san'ati vositalari orqali talabalarni estetik tarbiyalash uchun pedagogik shart-sharoitlar tizimi aniqlangan va uni takomillashtirishga oid zamonaviy metodik yechimlar ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida xalq-amaliy san'ati mashg'ulotlarida talabalarni estetik tarbiyalash mazmuni, shakl va usullari takomillashtirilgan, talabalarning estetik didi, badiiy tahlil kompetensiyasi, ijodiy tafakkuri, milliy madaniy merosga hurmati, shaxsiy ma'naviy immuniteti kabi sifatlarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik tavsiyalar tizimi yaratilgan;

xalq amaliy san'ati vositalari orqali estetik tarbiya ijtimoiy hayotning muhim omili ekanligi, shuningdek xalq merosi bilan tanishish jamiyatning ma'naviy-axloqiy estetik salohiyatining yuksalishi bilan bevosita bog'liqligi ishonchli isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xorijiy hamda OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik tavsiyalarning amaliyotda tatbiq etilishi;

talabalarda axloqiy-estetik madaniy munosabatni rivojlantirishga oid o'quv materiallari nashr etilganligi va ta'lim jarayoniga joriy qilinganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi;

tajriba-sinov ishlari ishtirokchilarini tanlashdagi reprezentativlik, olingan natijalarning matematik-statistik tahlili va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishga doir ilmiy-pedagogik tushunchalarning mazmun-mohiyati aniqlashtirilganligi, ularda estetik madaniyatning rivojlanganlik darajasini baholovchi mezon va ko'rsatkichlarining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati "Mahsulot tayyorlash texnologiyasi" va "Uy-ro'zg'or asoslari" fanlarini o'qitishda talabalarda estetik tarbiyani rivojlantirishga doir ilmiy-metodik natijalar va tavsiyalardan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma, ma'ruza matnlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shuningdek, dissertatsiya materiallari nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish jarayoniga tatbiq etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalq amaliy san'ati vositalari asosida talabalarni estetik tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida:

xalq amaliy san'ati vositalari asosida talabalarning estetik tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy modeli ishlab chiqilib, unda estetik ong, estetik did, ijodiy faoliyat va milliy qadriyatlarga sodiqlik kabi o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy komponentlar yaxlit integratsiyalashgan tizim sifatida asoslab berilgan va shunga doir tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Davlat Muzeyida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi 2026-yil 28-fevraldagi 10/504-son dalolatnomasi). Natijada, xalq amaliy san'ati vositalari estetik tarbiya ijtimoiy hayotning muhim omili ekani ishonchli isbotlangan, ijodiy faoliyat va milliy qadriyatlarga sodiqlik kabi o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy komponentlar yaxlit integratsiyalashgan tizim sifatida asoslab berilgan;

Xorazm xalq amaliy san'ati namunalari (kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, kulolchilik) asosida talabalarning estetik tarbiyasini baholash uchun kognitiv (bilim), axloqiy-qiymatli (munosabat), emotsional-estetik (his-tuyg'u) va faoliyatli-amaliy (ijodiy ishlar) komponentlarni qamrab olgan hamda talabalarning estetik rivojlanish dinamikasini aniqlash va pedagogik ta'sir samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini beradigan diagnostika mezonlari va indikatorlar tizimi aniqlashtirilgan va shunga doir amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar majmuasiga doir taklif va xulosalar "Mahsulot tayyorlash texnologiyasi" nomli darslik mazmuniga kiritilgan (Urganch davlat universiteti rektorining 2023-yil 14-dekabrda 181-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 57-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarning estetik rivojlanish dinamikasini aniqlangan va pedagogik ta'sir samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini beradigan diagnostika mezonlari va indikatorlar tizimi ishlab chiqilib, talabalarni estetik tarbiyalash jarayoni takomillashtirilgan;

Xorazm xalq amaliy san'ati materiallari integratsiyasiga tayangan holda talaba shaxsining estetik va ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi samarali o'quv-faoliyat resursi sifatida xizmat qiladigan amaliy mashg'ulotlar, ijodiy loyihalar, mahorat darslari, muzey va ustaxonalarga ekskursiyalar, interfaol metodlarni (klaster, loyiha, loyiha-portfel, "usta-shogird" an'analari) o'zida mujassamlashtirgan oliy ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etiladigan didaktik texnologiya va metodik kompleks ishlab chiqishga oid xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanali DM "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Yetti rang" dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 19-yanvardagi 05-09-69-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning estetik didi, badiiy tahlil kompetensiyasi, ijodiy tafakkuri, milliy madaniy merosga hurmati, shaxsiy ma'naviy immuniteti kabi sifatlari sezilarli darajada rivojlantirilgan;

tadqiqot natijalari asosida o'quv rejaları va fan dasturlarini boyitish, fakultativ kurslar, to'garaklar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazishda qo'llash mumkin bo'lgan Xorazm xalq amaliy san'ati vositalari orqali talabalarning estetik tarbiyasini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar majmuasiga doir taklif va xulosalar "Uy-

ro'zg'or asoslari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga kiritilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektorining 2025-yil 06-martdagi 103-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 132-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarning estetik madaniyati va tafakkuri yanada boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xorijiy va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy maqolalar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 186 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhlangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Talabalarni xalq amaliy san'ati vositalari asosida estetik tarbiyalashuvi psixologik-pedagogik muammo sifatida"** nomli birinchi bobida jamiyatning ma'naviy tiklanishi sharoitida aholining milliy-badiiy madaniyatini sezilarli darajada oshirish, talabalarning axloqiy va estetik tarbiyasini takomillashtirish eng dolzarb muammoga aylangan. Zamonaviy sivilizatsiyaviy va pedagogik rivojlanish bosqichida ta'lim tizimining bosh strategik vazifalaridan biri yuksak madaniyatli, ma'naviy jihatdan boy, fuqarolik burchini chuqur his qiladigan, o'z Vataniga sadoqatli va milliy badiiy dunyoqarashi shakllangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Tarixiy taraqqiyot silsilasida insoniyat ijtimoiy-psixologik ongida muayyan transformatsiyalar sodir bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar o'zgarishi bilan bir qatorda, fundamental estetik kategoriyalar (go'zallik va xunuklik, fojiaiylik va komiklik, ezgulik va yovuzlik)ning mazmun-mohiyatini idrok etish ham o'zgarib boradi. Mazkur strategik maqsadlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bevosita milliy, etnomadaniy qadriyatlarni qayta tiklash, xususan, Xorazm xalq amaliy san'ati an'analarini zamonaviy ta'lim muhitida tizimli ravishda rivojlantirish bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida Xorazm xalq amaliy san'atini o'qitishning metodologik asoslari estetik ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va zamonaviy talablariga to'liq mos kelishi zarur. Mazkur yo'nalishdagi konseptual yondashuvlarda estetik tarbiya shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlaydigan yaxlit pedagogik jarayonning fundamental tarkibiy qismi sifatida baholanib, u an'anaviy xalq hunarmandchiligi va kasbiy san'at sintezini o'z ichiga oladi. Badiiy-estetik qadriyatlarni o'zlashtirish talabalarning ijodiy-intellektual salohiyatini refleksiv faollashtirishga, ularning ma'naviy olamini boyitishga hamda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogika fanida estetik tarbiya nazariyasi bir qator fundamental falsafiy-estetik hamda psixologik-pedagogik qonuniyatlarga tayanadi.

Mazkur nazariyaning eng muhim uslubiy shartlaridan biri shaxsning estetik rivojlanishida maqsadli va tizimli pedagogik ta'sirning yetakchi o'rinda turishi haqidagi konseptual yondashuvdir. Ta'kidlash joizki, inson kamolotining har bir yosh davri shaxsiy ideallar va estetik bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos transformatsion shakllarini talab etadi. Faqatgina tizimli pedagogik va estetik-tarbiyaviy ta'sir vositasidagina yoshlarni rang-

barang badiiy-ijodiy faoliyat turlariga samarali jalb qilish, ularning hissiy-emotsional sferasini rivojlantirish hamda atrof-muhitdagi va inson shaxsidagi go'zallikni chuqur anglash imkonini beradi. Biroq, ushbu jarayonning samaradorligi bevosita oliy ta'lim tizimida tashkil etiladigan estetik ta'lim va tarbiya muhitining qay darajada tizimlashtirilganligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy pedagogik ta'lim, badiiy ta'lim, estetik tarbiya va shaxsiy rivojlanish hamda ma'rifat va madaniyat tizimining talablaridan kelib chiqqan holda, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida xalq amaliy san'atini, shu jumladan Xorazm xalq amaliy san'atini o'qitishda zamonaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Bobda xalq amaliy san'ati vositalari orqali estetik tarbiya berish bu nafaqat badiiy didni yuksaltirish, balki shaxsiyatning estetik ongini tizimli shakllantirish, milliy estetik meros orqali go'zallik qonuniyatlarini o'zlashtirish va ijodiy-estetik faoliyatni hayotiy amaliyot bilan uzviy bog'lash jarayonlari yoritilgan. Zamonaviy oliy ta'limda talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishning samarali va ilmiy asoslangan yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozimligi ta'kidlangan. Atrofdagi voqelikni, madaniyat va san'at qadriyatlarini estetik jihatdan idrok etish hamda interpretatsiya qilish qobiliyatini shakllantirish badiiy ta'limning bosh maqsadi hisoblanadi. Mazkur jarayon talabalarda estetik ongning tarkibiy qismlari bo'lgan estetik tuyg'u, did va ideallarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Keng ko'lamli ushbu pedagogik vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish bevosita oliy ta'lim muassasalarining funksional imkoniyatlariga tayanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi o'quv rejalariga badiiy-estetik sikldagi fanlar blokini joriy etish, talabalarni milliy madaniyat, san'at tarixi va xalq ijodiy merosi bilan tizimli tanishtirish orqali ularning ma'naviy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish professor-o'qituvchilar tarkibining ustuvor ilmiy-pedagogik vazifasiga aylanmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik voqelikning murakkabligi yosh avlodning muayyan qismida hissiy va estetik madaniyat elementlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ba'zan esa milliy-etnomadaniy ildizlardan va an'anaviy qadriyatlar tizimidan uzoqlashish tendensiyalari kuzatilayotganligi bilan izohlanadi. Ushbu ilmiy muammoni bartaraf etish oliy ta'lim tizimida xalq amaliy san'ati imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishni taqozo etadi.

Shu bois, zamonaviy sharoitda talaba-yoshlarning intellektual-mantiqiy va hissiy-estetik tarbiyasi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish obyektiv zaruriyat bo'lib, mazkur pedagogik muammoni san'at va madaniyat elementlarisiz hal etib bo'lmaydi. Vizual faoliyat turlari bo'lajak mutaxassislar uchun atrofdagi borliqni va ijtimoiy muhitni estetik anglashning eng interpretativ hamda qulay shakllaridan biri hisoblanadi. Xalq amaliy san'atiga asoslangan ijodiy jarayonlar talabalarda nozik assotsiativ aloqalarni faollashtirishga, badiiy-estetik dunyoqarashning rang-barangligi va kreativ fikrlash chuqurligining shakllanishiga bevosita xizmat qiladi. Bundan

tashqari, amaliy-texnologik mashg'ulotlar talabalarning o'quv jarayonidagi emotsional va psixologik zo'riqishlarini kamaytirish xususiyatiga ega.


Biroq, hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida "Texnologik ta'lim" yo'nalishi mavjud bo'lsa-da, talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishda ushbu fanning pedagogik-didaktik imkoniyatlaridan integratsiyalashgan holda tizimli foydalanish darajasi hali ham yetarli emasligi kuzatilmoqda. Vaholanki, shaxsning kasbiy-ijtimoiy va pedagogik shakllanishi, uning atrof-muhit hamda qadriyatlar tizimiga bo'lgan munosabati aynan oliy ta'lim bosqichida o'zining konseptual rivojiga yetadi.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining amaldagi holatini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda talaba-yoshlarning madaniy-badiiy qadriyatlar bilan tizimli tanishish mexanizmlarini hamda oliy ta'lim jarayonidagi estetik tarbiya muhitini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Ayrim ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda aholi va yoshlarning badiiy san'at maskanlariga, xususan, muzeylar, ko'rgazmalar va teatrlarga tashrif buyurish faolligi ko'rsatkichlarini tizimli oshirish lozimligi ta'kidlanadi.

Bobda Xorazm xalq amaliy san'ati nafaqat mamlakatimizning badiiy ijod sohalarida, balki O'zbekiston ko'p millatli madaniyatida ham juda sezilarli hodisadir. Xorazm zargarlik san'ati, kulolchiligi, gilamdo'zligi, mukammal va o'ziga xos ko'rinishlari mamlakatimiz chegaralaridan tashqarida ham mashhur bo'lib, bir necha bor xalqaro ko'rgazmalarda munosib taqdirlangan. Xorazm xalq amaliy san'atning rivojlanish tarixi xalq hunarmandlarining ijodiy izlanishlari va kashfiyotlari yilnomasi emas, balki yuzlab iste'dodli hunarmandlarning taqdiridir. Xalq amaliy san'ati oliy ta'limda estetik tarbiyaning fundamental vositasi sifatida shaxsiyatning estetik ongini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy go'zallik mezonlarini ichki qabul qilish, ijodiy-estetik faoliyatni hayotiy amaliyot bilan bog'lash va shu orqali yaxlit shaxsni tarbiyalash jarayonini ta'minlashi lozimligi keltirilgan. Ushbu yondashuv zamonaviy pedagogikada, ayniqsa san'at va pedagogika yo'nalishlarida talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biri sifatida tahlil qilingan. Xorazm xalq amaliy san'ati bilan tanishish (muzeylarda, master-klasslarda, loyiha ishlarida) talabalarning estetik madaniyatini regional xususiyatlar orqali universal go'zallik qonuniyatlari bilan bog'lash imkonini beradi. Xalq amaliy san'ati vositalari orqali talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash bu nafaqat ularning subyektiv badiiy didi va estetik hissiyotlarini yuksaltirish, balki shaxsiyatning estetik ongi va dunyoqarashini tizimli shakllantirish, boy milliy estetik meros orqali umumbashariy go'zallik qonuniyatlarini transformatsion o'zlashtirish hamda ijodiy-estetik faoliyatni amaliy hayotiy-kasbiy amaliyot bilan uzviy bog'lashning konseptual jarayonidir. Ushbu kompleks yondashuv zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilar va mutaxassislarning estetik madaniyatini shakllantirishning eng samarali, innovatsion hamda ilmiy-metodologik jihatdan asoslangan istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi lozim. Bu jarayon nafaqat badiiy didni yuksaltiradi, balki shaxsiyatning milliy o'zlikni anglashini mustahkamlaydi, ijodiy faoliyatni

hayotiy amaliyot bilan uzviy bog'laydi. Xorazm xalq amaliy san'ati orqali estetik tarbiya bu talabalarni nafaqat go'zallikni ko'ra biladigan, balki uni yaratadigan, qadrlaydigan va hayotga tatbiq etadigan yaxlit shaxs sifatida shakllantirishning samarali yo'li bo'lib, zamonaviy pedagogikada ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Xorazm xalq amaliy san'ati oliy ta'limda estetik tarbiyaning eng samarali va ilmiy asoslangan vositalaridan biri sifatida talabalarni go'zallikni nafaqat ko'ra biladigan, balki uni yaratadigan, qadrlaydigan va hayotga tatbiq etadigan yaxlit, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarga Xorazm xalq amaliy san'ati orqali estetik tarbiya berishning pedagogik mazmuni, shakl va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy oliy ta'lim tizimida estetik tarbiya shaxsning yaxlit kamolotini ta'minlashning muhim komponenti sifatida qaralib, talabalarning badiiy didini, ijodiy tafakkurini, go'zallikni idrok etish va qayta yaratish qobiliyatlarini tizimli rivojlantirishga xizmat qilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu jarayonda xalq amaliy san'ati, xususan Xorazmning noyob maktabi, o'zining estetik xususiyatlari, boy funksional-dekorativ an'analari bilan alohida o'rin egallaydi. Xorazm xalq amaliy-san'ati bilan tanishish jarayonida talabalarni badiiy estetik tarbiyalashning didaktik shartlari va Xorazm xalq amaliy san'atining turlari ko'rsatib o'tilgan. (1-rasmga qarang).



1-rasm. Xorazm xalq amaliy san'ati turlari

Xorazm xalq amaliy san'ati bilan tanishish orqali amalga oshiriladigan badiiy-estetik tarbiya bu zamonaviy oliy ta'limda milliy madaniy merosni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'lashning samarali va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Naqsh san'ati orqali estetik tarbiyalashning shakl va usullari bo'limida estetik tarbiya shaxsning go'zallik qonuniyatlarini idrok etish, baholash va ijodiy tarzda qayta yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayon bo'lib, zamonaviy oliy ta'limda talabalarning badiiy didini, ijodiy tafakkurini va madaniy-estetik madaniyatini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tahlil qilingan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, naqshlar amaliy san'at turining xususiyatidan kelib chiqib qo'llanilgan. Ayrim "olmagul", "madohil", "hoshiya", "zanjira", "bitav", "turunj", "qalampir", "qo'chqor shoxi", "marg'ula" kabi naqshlar amaliy san'atdagi ko'p sohada ishlatilgan. Ayrim naqshlardan esa faqatgina bir sohada foydalanilgan. Barcha naqshlar tuzilishiga ko'ra ikki turga, ya'ni oddiy va murakkab turga bo'linadi. Oddiy naqsh bir yoki ikki elementdan tashkil topsa, murakkab naqsh uch va undan ko'p elementdan

iborat bo'ladi. Xorazm amaliy san'atida islamiy va islamiy girih naqsh ko'p ishlatilgan. Faqat girihlardan tuzilgan kompozitsiyalar ham ko'p uchraydi. Shuningdek, Xorazmda o'simlik naqshlariga monand geometrik shakllardan ham foydalanilgan. Me'moriy obidalar, amaliy san'at buyumlarini bezatishda to'liqsimon, uzuk-uzuk chiziqlarni parallel joylashtirish keng tarqalgan. Bu ko'rinishdagi naqshlar asosan hoshiyalarda qo'llangan bo'lib, ular markazdagi tasvirlardan kontur chiziqlar orqali ajratilib ko'rsatilgan.

Xorazm amaliy san'atida qo'llangan naqshlar butun yuzani geometrik shakllar bilan to'ldirib, kompozitsiyada, asosan, novda spiralsimon aylanib murakkab ko'rinish hosil qiladi. Me'moriy obidalar, uy-ro'zg'or buyumlarini tuzatishda qo'llangan islamiy naqsh tuzilishida "novda", "marg'ula", "yaproq", "no'xatgul", "oygul" keng o'rin egallaydi. Bu islamiy naqshlar boshqa naqshlardan dinamik xarakterga ega ekanligi bilan farq qiladi. Xorazmda ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islamiy naqsh tushiriladi. Xorazm naqshlari "madohil" naqshlar asosida tuziladi.

Xorazm xalq amaliy san'atidan naqsh san'ati orqali estetik tarbiya – bu yosh avlodni tabiat, madaniyat va san'atdagi go'zallik qonunlariga o'rgatish jarayoni. U shaxsning estetik ongini, didini va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga xizmat qiladi. Xorazm xalq amaliy bezak san'atida naqshlar (geometrik, o'simliksimon, ramziy) tabiatdan stilizatsiya qilingan holda ishlatiladi, bu talabalarda uyg'unlik, ritm va mutanosiblikni his etishni tarbiyalaydi. Masalan, naqshlar orqali talabalar tabiat go'zalligini (gul, barg, novda) va madaniy ramzlarni (masalan, "pechak islamiy" – boylik ramzi) o'rganib, estetik ehtiyoj va qiziqishlarini shakllantiradilar. Bu tarbiya oila, maktab va jamiyat darajasida amalga oshiriladi, chunki naqsh san'ati me'morlik yodgorliklarida va kundalik buyumlarda (idishlar, gilamlar) keng qo'llaniladi. Estetik tarbiyalashning shakllari naqsh san'atini o'rganish va qo'llashning turli ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Ular nazariy va amaliy jihatdan tashkil etiladi, talabalarning yosh xususiyatlariga moslashtiriladi.

1. Amaliy mashg'ulotlar va loyihalar. Talabalar oddiy naqsh namunalari (masalan, gullar: bodom guli, mehrob islamiy) chizish, bo'yash va pardozlash orqali ishtirok etadilar. Bu shaklda hajmli buyumlar (o'yinchoqlar, kuboklar, esdalik buyumlari) yoki devor panellari bezatiladi. Masalan, oliy ta'lim interyerida naqshli kompozitsiyalar yaratish – bu talabalarda ijodiy munosabatni shakllantiradi.

2. Guruh va individual ishlar. Guruhda murakkab naqsh kompozitsiyalarini (geometrik girih, o'simliksimon islami) tuzish, individualda esa reklama shriftlari yoki shiorlar bilan birgalikda naqshlarni ishlash. Bu shakl yordamida talabalar mutanosiblik va uyg'unlikni o'rganadilar, masalan, qog'ozni 4/8/16 qismga buklab turunib yaratish.


3. Tarixiy va madaniy tahlillar. Xiva tarixiy yodgorliklari nafaqat me'morchilik yodgorliklari, balki o'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati va davlatchilik an'analari aks ettiradi. Me'moriy yodgorliklarga (masalan, Ichan-qal'a, Ko'hna ark, Kalta minor, Islom Xo'ja minorasi, Tosh hovli saroyi, Olloqulixon madrasasi) ekskursiyalar, naqshlarni solishtirish va ularning

ramziy ma'nosini muhokama qilish. Bu shakl talabalarda milliy merosga hurmat va estetik baho berish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Ko'rgazmalar va ommaviy tadbirlar. Naqshli ishlar ko'rgazmasi tashkil etish yoki bayramlarda dekorativ elementlar (e'lonlar, tabrik matnlari) yaratish. Bu shakl estetik tarbiyani jamiyat darajasida kuchaytiradi, talabalarning ijodiy natijalarini ommaga taqdim etish orqali motivatsiyani oshiradi.

5. Integrativ shakllar. Naqsh san'atini boshqa fanlar (masalan, tasviriy san'at, texnologiya) bilan bog'lash, masalan, naqshlarni musiqa ritmi yoki adabiyot she'ri bilan uyg'unlashtirish. Bu yaxlit tarbiyaga xizmat qiladi.

Usullar estetik tarbiyani amalga oshirishning texnik va pedagogik vositalaridir. Ular bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga o'tish tamoyiliga asoslanadi va yoshlarning individual qobiliyatlarini hisobga oladi.



2-rasm. Xorazm xalq amaliy san’ati vositasida talabalar estetik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik modeli

“Xorazm naqsh san’ati”ning integratsiyalashgan pedagogik jarayoni Xorazm vohasi naqshchilik an’alarini o’quv-tarbiya jarayonining markaziy komponenti sifatida belgilab, uni fanlararo (tasviriy san’at, texnologiya,

musiqqa va pedagogika) aloqadorlik asosida uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi. Natijada, talabalarning estetik didi, kreativ fikrlash salohiyati, amaliy kompetensiyalari hamda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi transformatsiyalashadi. Modelning bosh maqsadlaridan biri talabalarda Xorazm naqshchilik maktabi an'analariga nisbatan barqaror qiziqish hamda chuqur ichki motivatsion muhitini yuzaga keltirishdir. Chunki naqsh san'ati shunchaki dekorativ xarakterga ega bo'lmay, balki talabani tarixiy retrospektiva (o'tmish) bilan bog'lovchi, amaliy ijodkorlik salohiyatini namoyon etuvchi hamda milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi deterministik vositadir.

Modelning mazmuniy asoslaridan biri – talabalarga Xorazm naqsh san'atining ichki tuzilishini, estetik va falsafiy qatlamlarini chuqur o'rgatishdir. Naqsh nafaqat bezak, balki simmetriya, ritm, ranglar uyg'unligi va ramziy ma'nolar orqali olamning tartibi, tabiat va inson ruhiyatini ifodalovchi til sifatida qaraladi. Talabalar naqshning matematik, psixologik va madaniy jihatlarini o'rganib, uni "his qilish" va yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Xorazm xalq amaliy san'ati (naqsh tizimi, ranglar simbolikasi, kompozitsiya qonuniyatlari, texnikalar) vositalari orqali talabalarda chuqur estetik did, ijodiy-estetik tafakkur, milliy badiiy merosga hurmat shakllanadi. (2-rasmga qarang).

Dissertasiyaning uchinchi bobi **"Xalq amaliy san'ati vositalari asosida talabalarni estetik tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining samaradorligi"** deb nomlangan bo'lib, unda tajriba-sinov ishini rejalashtirish va tashkil qilishda tadqiqot maqsadi, vazifalari va faraz qilingan yondashuvlarga mosligini inobatga olgan holda tamoyillari, bosqichlari, kutilayotgan natijalarni baholash vositalari hamda diagnostika qilish mezon va ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Tajriba-sinov ishlari Urganch davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti va Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida olib borildi. Respondentlar sifatida 400 nafar talaba qamrab olindi. Tajriba-sinov ishlarida nazarda tutilgan asosiy vazifalar maslahat-yo'riqnomalar va xalq-amaliy san'ati vositalari orqali talabalarni estetik tarbiya berish sohasidagi nazariy jihatdan rivojlantirish masalalarini borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini aniqlashdan iborat. Bunday tushuncha va tasavvurlar pedagog uchun mutlaq yangi voqelik, chunki ularni OTMlar faoliyatiga joriy etish haqida zarur qarorlar qabul qilinganiga, ayniqsa OTM talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish madaniyati shakllantirish dolzarb vazifa ekanligidan kelib chiqsak, tajriba-sinovimizning ilmiy va amaliy ahamiyati ayon bo'ladi. Mazkur holat taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini ilmiy asosda aniqlash zaruratini taqozo etdi. Taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlari dasturi ishlab chiqildi va quyidagi uchta bosqichda olib borildi:

1-bosqich – Xorazm xalq amaliy san'ati vositalari asosida

